

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI..... | 14 |
| Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich | |
| GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES | 20 |
| Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li | |
| O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH..... | 24 |
| Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi | |
| O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI | 30 |
| Nosirova Kamola Alimovna | |
| RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH | 39 |
| Xazratov Abror Panjiyevich | |
| MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI | 44 |
| Astanayev Kulmaxammat Sanayevich | |
| TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI..... | 51 |
| Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI..... | 57 |
| Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi | |
| MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI | 64 |
| Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li | |
| ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН..... | 70 |
| Гаффоров Шухрат Насриевич | |
| IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI..... | 77 |
| Shohruzbek Ruziyev | |
| “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI..... | 84 |
| Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov | |
| RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI..... | 87 |
| Sharipova Shahlo Istamovna | |
| TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI | 92 |
| Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li | |
| INVESTITSIYALAR BUXGALTERIYA HISOB I OBYEKTI SIFATIDA..... | 99 |
| I.Boymurodov | |
| TA‘LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH | 103 |
| Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi | |
| O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI | 110 |
| Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira | |



| | |
|--|-----|
| TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL TAHLILI | 115 |
| Almuradov Ne'mat Abdullayevich | |
| SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IQTISODIY MEXANIZMLARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 123 |
| Kuzieva Nargiza Ramazanovna | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DAVLAT MULKINI BOSHQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI..... | 130 |
| Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARIDA SANOAT 4.0 MODELIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI..... | 136 |
| Komilova Dilafruz Rustam qizi | |
| "O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA AMALIY IQTISODIYOTNING INTEGRATSION MEXANIZMI ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... | 141 |
| Bobojonova Zarnigor Shokirovna | |
| EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI | 149 |
| Axmedov Umidjon | |
| NMSH TURIDAGI RELELARNING TEXNIK TAVSIFLARINI TEKSHIRISH UCHUN STEND ISHLAB CHIQISH. | 156 |
| Raxmonov Bobomurod, Qodirov Azamat, Yusupova Shirin, Mirzaraxmedov Zafar | |
| ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ВЛИЯНИЯ КЛАСТЕРОВ ИНДУСТРИИ РАЗВЛЕЧЕНИЙ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ (ЗАНЯТОСТЬ, ДОХОДЫ, ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТОК, НАЛОГОВЫЕ ПОСТУПЛЕНИЯ): КРИТЕРИИ И МЕТОДЫ ОЦЕНКИ | 163 |
| Султонмуродов Мирзо-Улугбек Мукумжон углы | |
| ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЦЕНТРАХ: ПРИМЕНЕНИЕ AI-ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ГРУПП..... | 170 |
| Джамолова Хилола Исмаиллаевна, Алимова Машхура Тоирхоновна | |
| XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI | 175 |
| Ulmasova Oygul Baxtiyorovna | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI..... | 181 |
| Raxmanov Zafar Yashinovich | |
| КРЕАТИВНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЕСЕЛ В УЗБЕКИСТАНЕ | 187 |
| Хушназарова Махзуна Гуламджановна | |
| MADANIY MEROS OBYEKTLARINING XALQARO TURIZM OQIMLARIGA TA'SIRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MINTAQAVIY TAHLIL | 193 |
| Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li | |
| ФОРМИРОВАНИЕ И НАКОПЛЕНИЕ ПЕРВЫХ МЕДИЦИНСКИХ ЗНАНИЙ | 200 |
| Рахматуллаева Фотима Султонмуродовна | |
| SAVDO KORXONALARIDA SEGMENTLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASHNING USLUBIY ASOSLARI | 206 |
| Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna | |
| SAVDO KORXONALARIDA SEGMENTLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASHNING USLUBIY ASOSLARI | 206 |
| Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna | |
| ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ НИТРООКСИДИРОВАНИЯ НА СТРУКТУРУ И ЭКСПЛУАТАЦИОННЫЕ СВОЙСТВА КОНСТРУКЦИОННЫХ СТАЛЕЙ | 212 |
| Бойназаров Урол Равшанович | |



| | |
|--|-----|
| SANOAT ISHLAB CHIQRISHI VA IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'SIRI | 219 |
| Pardayev Orifjon Charshamiyevich | |
| IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA FISKAL INSTRUMENTLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING AMALIY JIHLTLARI | 224 |
| Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich | |
| RAQAMLI TAFOVUT (DIGITAL DIVIDE) VA UNING QISHLOQ HUDUDLARIDA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRI (ISH KUCHI VA KAPITAL HAQIDAGI IQTISODIY NAZARIYA DOIRASIDA) | 230 |
| O'rozaliyev Elyor Shuxrat o'g'li | |
| THE ESSENCE AND PLACE OF LOGISTICS IN THE SYSTEM OF THE NEW MARKET ECONOMY OF UZBEKISTAN | 236 |
| Musayeva Shoira Azimovna | |
| MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA XARAJATLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI | 241 |
| Soibbekov Abdulvosit, Teshaboyev Xushnud | |



MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA XARAJATLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Soibbekov Abdulvosit Baxtiyorjon o'g'li

Andijon davlat texnika institute, "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Teshaboyev Xushnud

Andijon davlat texnika isitituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarida moddiy zahiralarning hisobi va ular bilan bog'liq xarajatlar tahlilini tashkil etishning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Korxonada moddiy zahiralarning kirimi, sarfi, baholanishi va ular bilan bog'liq xarajatlarning shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar o'rganilgan hamda korxonada moddiy zahiralarning hisobi tizimini takomillashtirish, ichki nazoratni rivojlantirish va hisob jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari korxonada ERP tizimlari, barkodlash va RFID texnologiyalarini joriy etish moddiy resurslar harakati ustidan tezkor nazoratni ta'minlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkonini berishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: moddiy zahiralarning hisobi, buxgalteriya hisobi, xarajatlar tahlili, moddiy qaytim, ERP tizimi, inventarizatsiya, ichki nazorat, raqamlashtirish, tannarx, ishlab chiqarish samaradorligi.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of organizing inventory accounting and analyzing related costs in manufacturing enterprises. The study analyzes the receipt, consumption, valuation of inventories, and the formation of inventory-related costs within the enterprise. In addition, indicators assessing the efficiency of material resource utilization were examined, and scientific and practical recommendations were developed to improve the inventory accounting system, strengthen internal control, and digitalize accounting processes within the enterprise. The research findings demonstrated that the implementation of ERP systems, barcode technologies, and RFID technologies enables real-time control over the movement of material resources, optimization of costs, and more effective managerial decision-making.

Keywords: inventories, accounting, cost analysis, material efficiency, ERP system, inventory management, internal control, digitalization, production cost, production efficiency.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты организации учета материальных запасов и анализа связанных с ними затрат на производственных предприятиях. Проанализированы поступление, расход, оценка материальных запасов, а также формирование связанных с ними затрат на предприятии. Кроме того, изучены показатели оценки эффективности использования материальных ресурсов, а также разработаны научно-практические предложения по совершенствованию системы учета материальных запасов, развитию внутреннего контроля и цифровизации учетных процессов на предприятии. Результаты исследования показали, что внедрение ERP-систем, технологий штрихкодирования и RFID-технологий позволяет обеспечить оперативный контроль за движением материальных ресурсов, оптимизировать затраты и повысить эффективность принятия управленческих решений.

Ключевые слова: материальные запасы, бухгалтерский учет, анализ затрат, материалоотдача, ERP-система, инвентаризация, внутренний контроль, цифровизация, себестоимость, эффективность производства.

KIRISH

Ishlab chiqarish korxonalarida moddiy zahiralarning korxonada faoliyatining asosiy iqtisodiy resurslaridan biri hisoblanadi. Xomashyo, materiallar, ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqa moddiy resurslarning ishlab chiqarish jarayonidagi ulushi yuqori bo'lganligi sababli ularni samarali boshqarish korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, moddiy zahiralarning mahsulot tannarxining asosiy qismini tashkil etishi sababli ularning hisobi va tahlilini to'g'ri tashkil etish korxonada raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi globallashtirish va iqtisodiy integratsiya sharoitida ishlab chiqarish korxonalarida faoliyatida resurslardan oqilona foydalanish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, logistika xarajatlarining ortishi, import qilinadigan xomashyo va ehtiyot qismlar narxlarining o'zgaruvchanligi korxonalarda moddiy zahiralarning harakati ustidan samarali nazoratni tashkil etishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni [1] hamda BHMS-4 "Tovar-moddiy zahiralarning" milliy standarti [2] korxonalarda moddiy zahiralarning hisobi va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning metodologik asoslarini belgilab beradi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar moddiy resurslarni baholash, ularning haqiqiy tannarxini shakllantirish, hisobdan chiqarish va inventarizatsiya qilish tartiblarini tartibga soladi.

Moddiy zahiralarning korxonada aylanma mablag'larining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ularning ishlab chiqarish siklining bir bosqichida to'liq iste'mol qilinishi va o'z qiymatini tayyor mahsulot tannarxiga to'liq o'tkazishi moddiy resurslarning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu sababli moddiy zahiralarning me'yoridan ortiq shakllanishi korxonada mablag'larining aylanmadan vaqtincha cheklanishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, ularning yetarli darajada ta'minlanmasligi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarida moddiy zahiralarning harakati bilan bog'liq hisob operatsiyalarining hajmi ortib bormoqda. Natijada hisob ma'lumotlarining aniqligi va tezkorligini ta'minlash, moddiy resurslar ustidan ichki nazoratni kuchaytirish hamda inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, korxonalarda moddiy zahiralarning bilan bog'liq xarajatlarning mahsulot tannarxidagi ulushi yuqori bo'lganligi sababli ularni iqtisodiy tahlil qilish va samarali boshqarish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, "Perfect Auto Motors" MChJ misolida moddiy zahiralarning hisobi va ular bilan bog'liq xarajatlarning tahlilini o'rganish, mavjud amaliyotni baholash hamda hisob tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moddiy zahiralarning hisobi va xarajatlarning tahlili masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, K. Drury boshqaruv hisobi tizimida moddiy xarajatlarning nazorat qilish korxonada rentabelligini oshirishning muhim vositalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [3]. Olimning fikricha, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlarning ulushi yuqori bo'lgan korxonalarda resurslardan oqilona foydalanish va ular ustidan samarali nazoratni tashkil etish korxonada moliyaviy natijalarini yaxshilashning muhim omillaridan hisoblanadi.

Charles T. Horngren va hammualliflari ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishda moddiy resurslarning ulushi yuqori ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [4]. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, materiallarning sarfi me'yorlarini to'g'ri belgilash va moddiy xarajatlarning nazorat qilish mahsulot tannarxini optimallashtirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Donald E. Kieso, Jerry J. Weygandt va Terry D. Warfieldlarning ilmiy ishlarida esa moddiy zahiralarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida baholash va hisobga olish tartiblari yoritilgan [5]. Xususan, ular moddiy zahiralarning FIFO, o'rtacha tortilgan qiymat va identifikatsiyalash usullari asosida baholashning afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Eugene F. Brigham va Joel F. Houston korxonalarda aylanma mablag'lardan samarali foydalanish hamda likvidlikni boshqarish masalalarini tadqiq etib, moddiy zahiralarning optimal hajmini shakllantirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlaganlar [6]. Ularning fikricha, moddiy zahiralarning me'yoridan ortiq shakllanishi korxonada mablag'lari aylanishiga qo'shimcha yuklama keltirib chiqarishi mumkin.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan G.V. Savitskaya, A.D. Sheremet va N.P. Kondrakov iqtisodiy tahlil, inventarizatsiya hamda moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash masalalarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning ilmiy qarashlarida moddiy zahiralarning aylanish tezligi, material sig'imi va moddiy qaytim ko'rsatkichlari ishlab chiqarish samaradorligini baholashning muhim mezonlari sifatida tavsiflangan. G.V. Savitskaya korxonalarda moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish orqali mavjud imkoniyatlarni aniqlash va mahsulot tannarxini optimallashtirish imkoniyatlari mavjudligini asoslab bergan.

A.D. Sheremet iqtisodiy tahlilda moddiy zahiralarning aylanish koeffitsiyenti va material sig'imi ko'rsatkichlarini korxonada moliyaviy holatini baholashning muhim indikatorlari sifatida ko'rsatgan [7]. N.P. Kondrakov esa moddiy zahiralarning hisobi va inventarizatsiya jarayonlarini tashkil etishning uslubiy asoslarini ishlab chiqqan. Olimning ilmiy qarashlariga ko'ra, inventarizatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish moddiy resurslarning saqlanishini ta'minlash va ulardan foydalanish ustidan nazorat samaradorligini oshirishga xizmat



qiladi [8].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan K.B. Urazov, R.D. Do'smurotov, M.M. To'laxodjayeva, B.A. Xasanov va M.Q. Pardayevlarning ilmiy ishlarida korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil hamda moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Xususan, K.B. Urazov tomonidan buxgalteriya hisobi nazariyasining zamonaviy yo'nalishlari yoritilgan bo'lsa, R.D. Do'smurotov moliyaviy hisob tizimida moddiy zahiralarni hisobga olish usullarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. M.M. To'laxodjayeva boshqaruv hisobi tizimida moddiy xarajatlarni nazorat qilish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish masalalarini tadqiq etgan. B.A. Xasanov hamda M.Q. Pardayev esa iqtisodiy tahlil jarayonida moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqqanlar [10; 11; 12].

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida moddiy zahiralarni hisob va ichki nazorat tizimini avtomatlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ERP tizimlari, BI platformalari, barkodlash va RFID texnologiyalaridan foydalanish asosida moddiy resurslar harakati ustidan real vaqt rejimida nazoratni tashkil etish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari hisob ma'lumotlarining aniqligini oshirish, inventarizatsiya jarayonlarini tezlashtirish hamda inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, moliyaviy ko'rsatkichlarni guruhlash va iqtisodiy samaradorlikni baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot objekti sifatida "Perfect Auto Motors" MChJ faoliyati tanlandi. Korxonaning 2024–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari, ichki buxgalteriya ma'lumotlari hamda moddiy zahiralarni hisobi registrlari tadqiqotning asosiy axborot bazasi sifatida xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasida "Perfect Auto Motors" MChJda moddiy zahiralarni korxonaga aylantirish aktivlarining muhim qismini tashkil etishi aniqlandi. Korxonaning 2025-yil yakuniy moliyaviy ma'lumotlariga ko'ra, jami tovar-moddiy zahiralarni hajmi 116 071,42 ming so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich korxonada ishlab chiqarish faoliyatida moddiy resurslarning yuqori ulushga ega ekanligini ko'rsatadi. Moddiy zahiralarni tarkibida xomashyo va asosiy materiallar ulushi 41,6 foizni, avtomobil ehtiyot qismlari ulushi esa 30,7 foizni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval
"Perfect Auto Motors" MChJda moddiy zahiralarni tarkibi (2025-yil)¹

| № | Moddiy zahira turlari | Miqdori (ming so'm) | Ulushi (%) |
|---|--------------------------------|---------------------|------------|
| 1 | Xomashyo va asosiy materiallar | 48250,0 | 41,6 |
| 2 | Avtomobil ehtiyot qismlari | 35640,0 | 30,7 |
| 3 | Yoqilg'i-moylash materiallari | 10240,0 | 8,8 |
| 4 | Yordamchi materiallar | 8560,0 | 7,4 |
| 5 | Inventar va xo'jalik jihozlari | 7341,42 | 6,3 |
| 6 | Qadoqlash materiallari | 6040,0 | 5,2 |
| | Jami | 116071,42 | 100 |

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, moddiy zahiralarning asosiy qismini ishlab chiqarish jarayonida bevosita foydalaniladigan xomashyo va ehtiyot qismlar tashkil etadi. Bu esa korxonada moddiy resurslar harakati ustidan samarali nazoratni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Korxonada moddiy resurslarning kirimi asosan yetkazib beruvchilardan xarid qilish va import operatsiyalari orqali amalga oshirilishi aniqlandi. Moddiy resurslarning haqiqiy tannarxiga xarid qiymati bilan bir qatorda transport, bojxona hamda yuklash-tushirish xarajatlari ham kiritilishi kuzatildi. Tahlillar natijasida transport va logistika xarajatlari moddiy zahiralarni bilan bog'liq jami xarajatlarning 7,3 foizini, bojxona xarajatlari esa 6,7 foizini tashkil etishi aniqlandi (2-jadval).

1 "Perfect Auto Motors" MChJ ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi



2-jadval

“Perfect Auto Motors” MChJda moddiy zahiralalar bilan bog‘liq xarajatlar tarkibi²

| No | Xarajat turlari | Miqdori (ming so‘m) | Ulushi (%) |
|----|-------------------------------|---------------------|------------|
| 1 | Xarid qiymati | 92000 | 82,4 |
| 2 | Transport xarajatlari | 8200 | 7,3 |
| 3 | Bojxona to‘lovlari | 7500 | 6,7 |
| 4 | Yuklash-tushirish xarajatlari | 2100 | 1,9 |
| 5 | Vositachilik xizmatlari | 1800 | 1,7 |
| | Jami | 111600 | 100 |

Mazkur natijalar korxonada transport-logistika xarajatlari moddiy resurslar tannarxiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, import qilinadigan ehtiyot qismlar ulushining yuqoriligi bojxona xarajatlari salmog‘ining ortishiga ta‘sir etmoqda. Shu sababli logistika xarajatlarini optimallashtirish korxonada tannarxni pasaytirishning muhim imkoniyatlaridan biri sifatida baholandi.

Korxonada moddiy zahiralardan foydalanish samaradorligini baholash maqsadida moddiy qaytim, material sig‘imi va zahiralalar aylanish koeffitsiyenti kabi ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi. Tahlillar natijasida moddiy qaytim ko‘rsatkichining oshib borishi moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanayotganini ko‘rsatdi.

Moddiy qaytim ko‘rsatkichi quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$MQ = \frac{IChM}{MX}$$

Bunda:

MQ — moddiy qaytim; IChM — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; MX — moddiy xarajatlar summasi.

Korxonada ma‘lumotlari asosida:

$$MQ = \frac{762609,91}{111600} = 6,83$$

Natija shuni ko‘rsatadiki, moddiy xarajatlarning har bir so‘miga 6,83 so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Material sig‘imi ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlandi:

$$MS = \frac{MX}{IChM} = \frac{111600}{762609,91} = 0,146$$

Mazkur ko‘rsatkich mahsulot ishlab chiqarishning har bir so‘miga 0,146 so‘m moddiy xarajat to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, moddiy zahiralarning aylanish koeffitsiyenti ham hisoblab chiqildi:

$$AZK = \frac{SMT}{O'MZ}$$

Bunda:

SMT — sotilgan mahsulot tannarxi; O‘MZ — o‘rtacha moddiy zahiralalar summasi.

Korxonada ma‘lumotlari asosida:

$$AZK = \frac{620000}{116071,42} = 5,34 \text{ marta}$$

Mazkur ko‘rsatkich moddiy zahiralarning yil davomida 5,34 marta aylanganligini anglatadi (3-jadval).

3-jadval

Moddiy zahiralardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari³

| No | Ko‘rsatkichlar | Formula | Natija |
|----|------------------|-----------|--------|
| 1 | Moddiy qaytim | IChM / MX | 6,83 |
| 2 | Material sig‘imi | MX / IChM | 0,146 |

2 “Perfect Auto Motors” MChJ ma‘lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

3 Mualliflar ishlanmasi



| | | | |
|---|--------------------------------|-------------|--------|
| 3 | Aylanish koeffitsiyenti | SMT / O'MZ | 5,34 |
| 4 | Aylanish davri | 360 / AZK | 67 kun |
| 5 | Moddiy xarajatlar rentabelligi | F / MX ×100 | 18,5 % |

Natijalar shuni ko'rsatadiki, korxonada moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi qoniqarli darajada bo'lsa-da, ayrim yo'nalishlarda ombor qoldiqlarini optimallashtirish va transport xarajatlarini yanada maqbullashtirish imkoniyatlari mavjud.

Tadqiqot davomida korxonada moddiy zahiralari hisobi tizimini takomillashtirish va ichki nazoratni rivojlantirish bo'yicha quyidagi masalalar aniqlandi:

- ayrim ombor operatsiyalarining qo'lda yuritilishi;
- inventarizatsiya jarayonlarining uzoq davom etishi;
- me'yorida ortiq moddiy qoldiqlarning mavjudligi;
- materiallar harakati ustidan real vaqt rejimidagi monitoringning yetarli darajada rivojlanmagani;
- logistika xarajatlarini optimallashtirish zarurati;
- ayrim hujjatlar aylanishining an'anaviy shaklda yuritilishi.

Mazkur masalalarni samarali hal etish maqsadida korxonada ERP tizimlari, barkodlash va RFID texnologiyalarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ERP tizimlarini joriy etish natijasida inventarizatsiya davomiyligini 60 foizga, hujjatlarni qayta ishlash vaqtini esa 66,7 foizga qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi (4-jadval).

4-jadval

ERP tizimini joriy etish natijasida kutilayotgan samaradorlik ko'rsatkichlari⁴

| № | Ko'rsatkichlar | Joriy holat | Takomillashtirilgandan so'ng | O'zgarish (%) |
|---|-----------------------------------|-------------|------------------------------|---------------|
| 1 | Inventarizatsiya davomiyligi | 10 kun | 4 kun | -60 |
| 2 | Hujjatlarni qayta ishlash muddati | 3 kun | 1 kun | -66,7 |
| 3 | Hisobdagi xatolar darajasi | 100 % | 35 % | -65 |
| 4 | Ombordagi ortiqcha qoldiqlar | 100 % | 70 % | -30 |
| 5 | Moddiy resurslar monitoringi | Past | Yuqori | +85 |
| 6 | Hisobot tayyorlash tezligi | O'rta | Yuqori | +75 |

Shuningdek, Biznes intellekt (BI) platformalaridan foydalanish orqali moddiy xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, mahsulot tannarxini prognozlash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini tezkor baholash imkoniyatlari mavjudligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moddiy zahiralari hisobi va xarajatlar tahlilini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish korxonalarda moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ERP tizimlari va avtomatlashtirilgan ombor boshqaruvi moddiy resurslar harakati ustidan uzluksiz nazoratni ta'minlash orqali xarajatlarni maqbullashtirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ichki audit va inventarizatsiya tizimini takomillashtirish moddiy resurslarning saqlanishini ta'minlash, ulardan foydalanish ustidan nazorat samaradorligini oshirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini kuchaytirish imkonini beradi. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va mahsulot tannarxini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonada moddiy zahiralari ustidan real vaqt rejimida monitoringni tashkil etish orqali moddiy resurslar harakatining shaffofligi va boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin. Ayniqsa, barkodlash va RFID texnologiyalarini joriy etish inventarizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi, inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytiradi hamda ombor hisobining aniqligini oshiradi.

Bundan tashqari, BI platformalari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish korxonada moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni prognozlash, zahiralarni optimal darajada shakllantirish hamda logistika xarajatlarini maqbullashtirish imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va korxonaning rentabelligini yaxshilashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari "Perfect Auto Motors" MChJda moddiy zahiralari hisobi va xarajatlar tahlilini zamonaviy boshqaruv texnologiyalari asosida tashkil etish korxonaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelindiki, “Perfect Auto Motors” MChJda moddiy zahiralarning hisobi va xarajatlar tahlilini takomillashtirish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Korxonada moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ERP tizimlari, barkodlash va RFID texnologiyalarini joriy etish, inventarizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish hamda ichki nazorat tizimini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, moddiy xarajatlarni optimallashtirish, transport-logistika xarajatlarini maqbullashtirish va materiallar sarfi me'yorlarini takomillashtirish mahsulot tannarxini pasaytirish hamda korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilash imkonini beradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida moddiy zahiralarning hisobi va xarajatlar tahlilini tashkil etish korxonaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni. O'RQ–404-son, 2016-yil 13-aprel. <https://lex.uz/docs/-2931253?otherlang=1>
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. BHMS–4 “Tovar-moddiy zahiralarning hisobi va xarajatlari”.
3. Brigham E.F., Houston J.F. Fundamentals of Financial Management. – Boston: Cengage Learning, 2016.
4. Drury C. Management and Cost Accounting. – Andover: Cengage Learning, 2018.
5. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – Harlow: Pearson Education, 2018.
6. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – Hoboken: Wiley, 2020.
7. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Москва: ИНФРА-М, 2018.
8. Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. – Москва: ИНФРА-М, 2017.
9. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет. – Москва: ИНФРА-М, 2019.
10. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent, 2020.
11. Do'smurotov R.D. Moliyaviy hisob. – Toshkent, 2019.
12. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Toshkent, 2018.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100